TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO’LLASHNING AHAMIYATI

Zikirova Dildora
TMC instituti o‘qituvchisi

Har qanday mamlakatning kuch – qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga bog‘liq. Ta'lim tizimida innovatsiya, integratsiya va o‘qitish sifati monitoringini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda o‘quv-tarbiya jarayoni natijaviyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yo‘nalishdagi tadqiqotlarda o‘qitish sifati monitoringining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini tatbiq etish, uzluksiz ta'lim tizimiga innovatsion g‘oyalarni, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflarni,tavsiyalar tizimini ishlab chiqish, ta'lim va o‘qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, o‘qitish sifati monitoringini avtomatlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Butun jahonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar kishilik jamiyatining oliy maqsadi bo‘lib kelgan - jismonan va axloqan barkamol, aqlan yetuk, ma'naviy boy insonni tarbiyalash muammosining yechimini topishga qaratilgan bo‘lib, bu demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatida muhim ahamiyat kasb etadi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimining natijali samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirib borish vazifasini qo‘yadi. Shu boisdan ham ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo’llash orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib,avvalo “texnologiya” so‘zining, mohiyati, mazmunini aniqlab chiqish lozim. “Texnologiya” so‘zi 1872 yilda qo‘shma, yunoncha, ya’ni “texnos” – san’at, mahorat va “logos” - fan so‘zlaridan olinib, “mahorat fani" ma’nosini, “O‘zbek tilining” 1981 yilda nashr etilgan izohli lug‘atida esa “ishlab chiqarish protsesslari, metod va vositalari xaqidagi bilimlar majmui” degan ma’noni anglatadi.Buni pedagogika faniga ko‘chirib, “pedagogik texnologiya” deb izohlaydigan bo‘lsak, unda “ta’lim - tarbiya qoidalari, metodlari shakl va vositalari xaqidagi bilimlar majmui” degan ma’no kelib chiqadi. Chunki “Pedagogika” bu ta’lim - tarbiya demakdir. Shunday qilib, “pedagogik texnologiya” bu ta’lim - tarbiya jarayonining qoidalari, metodlari, shakllari,vositalarining mukammaligini anglatuvchi bilimlar yig‘indisi yoki san’atidir. Zero, har bir tarbiyach o‘qitish va tarbiyalashning qoida, shakl, metod, vositalarini mukammal, san’at darajasida bilsa, shunga qarab tarbiya jarayonini tashkil qilsa, tarbiyalanuvchini mustaqil fikrlashga, muloxaza qilishga o‘rgatadi va ko‘zlangan maqsadga erishadi.

Buni faqat ta’lim-tarbiya muassasalarining o‘qitish-tarbiyalash jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish orqali, bo‘lajak barkamol avlodga yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Shu bois mazkur muammo respublikamiz olimlarining diqqat markazida turibdi. Mazkur mavzu doirasida mamlakatimizda maqolalar, qo‘llanmalar, risolalar nashr etilmoqda.

Xalqaro tashkilot YUNESKOning ta’rifiga ko‘ra **“Pedagogik texnologiya - bu, ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyatini hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, o‘qitish va bilish, o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimli metodidir”** (YUNESKO). Bu ta’rifda pedagogik texnologiyaning ko‘p jihatlari ochib berilgan bo‘lib asosan ta’lim-tarbiya jarayoniga yakka xolda emas, balki tizimli yondashish asos qilib olingan.

Ushbu ta’rifga mazmun va mohiyat nuqtai nazaridan yaqin ta’rifni fikrimizcha Yapon pedagogi, olim T. Sakamoto izohlagan.Uning fikricha **“Pedagogik texnologiya-bu majmuali fikr yuritish metodini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuaga keltirishdir”.** Mazkur, yuqoridagi ikki ta’rif, shubxasiz tayanch so‘zlar “tizimli yondashuv” va “majmuali yondashuv” asosiy, pedagogik texnologiya mazmunini anglatuvchi tayanch so‘zlar bo‘lib, ta’riflardagi boshqa barcha so‘zlar tizim sifatida pedagogik texnologiya mohiyatini tavsiflaydi.

Xuddi mana shu sistemali, majmuali yondashuv pedagogik texnologiyani boshqa texnologiyalardan ajratib turadi va ta’lim maqsadlari, ta’lim – tarbiya mazmuni, metodlari hamda tarbiya natijalarini oldindan kafolatlashni o‘zaro bog‘liqda va aloqadorlikda nazarda tutib, nazorat qilishni amalga oshiradi. Aynan mana shu xususiyat an’anaviy tarbiyada yetishmaydi. Masalan, an’anaviy tarbiya jarayonini axborotlarini eshitish, esda saqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda tarbiyalanuvchi aktiv faoliyati, operatsiyalarni mustaqil bajarishi, esdan chiqarib qo‘yilgan.Yoyinki, ma’lum maktabgacha ta’lim muassasalarida, har bir mashg‘ulotning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zga mashg‘ulotlar farqli tomonlari hisobga olinmasdan ularni nazorat qilish ma’muriyat tomonidan bir xil metodda amalga oshirish qoiida bo‘lib qolgan.

Tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi g‘oyasini ko‘tarib chiqqan rus pedagoglaridan biri M.V.Klarin pedagogik texnologiyani ta’riflab shunday yozadi: **“Pedagogik texnologiya - tarbiya jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad, mazmun, yo‘nalish, ko‘rsatgichlaridan kelib chiqib, tarbiya jarayonini loyihalash va tizimli yondashishdir”.**

Ushbu ta’rifdan shu narsa ma’lumki, o‘quv maqsadlariga erishish va yaxshi natijani qo‘lga kiritishning muhim sharti tarbiyalash texnologiyasining mexanizmi bo‘lgan tarbiya jarayonini loyihalash va ta’lim-tarbiyaga tizimli yondoshishdir.

Respublikada pedagogik texnologiyani ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish va uni fan sifatida e’tirof etishni birinchilardan bo‘lib pedagog olimlardan B.L.Farberman, N.S. Sayidaxmedov, M.Ochilov, O.Roziqov, X.Abdukarimov, T.Nazarova, K.Zaripov, B.Ziyomuhammedov va boshqalar talqin qildilar. Bular tomonidan pedagogik texnologiyaning mazmun mohiyatini aniqlashtirish, uning xududga mos variantini yaratish, ta’lim-tarbiyani texnologiyalashtirish vositasida barkamol shaxsni shakllantirish va yuksaltirish masalalari ko‘tarilib chiqildi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya ilmiy konsepsiyaga asoslangan maqsadni belgilash va unga erishishda ijtimoiy, didaktik, ruhiy-pedagogik, falsafiy nazariyaga suyangan vazifa, faoliyat, natija yaxlitligi, muvaffaqiyatini ta’minlaydigan, ta’lim-tarbiyaning loyihalangan jarayoni, tamoyillari metodlari, vositalarining o‘zaro hamkorlikdagi birligidir.

Shu o‘rinda ikkinchi masalaning xulosa sifatida pedagogika fanlari doktori, professor M.Ochilovning fikriga qo‘shilgan holda pedagogika nazariyasi va amaliyotida tan olingan va ilmiy nazariy jihatdan asoslangan, pedagogik olimlar bildirgan fikrlarni tahlil qilib, pedagogik texnologiyaning mohiyat-mazmuniga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- ✓ Ta’lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalash ;
- ✓ tizimli yondashuv asosida tarbiyalanuvchilar bilish faoliyatini tasvirlaydigan tarbiya jarayoni loyihasini tuzish;
- ✓ Ta’lim-tarbiya maqsadi real, aniq diagnostik bo‘lishi va tarbiyalanuvchining bilish o‘zlashtirish sifatini obyektiv baholash;
- ✓ Ta’lim-tarbiya jarayonining tuzilishi va mazmunini yaxlitligi, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirda bo‘lishi;
- ✓ tarbiya shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish);

- ✓ tarbiya jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o‘zaro ta’sirini hisobga olish;
- ✓ tarbiya maqsadlarini ko‘zlagan etalon asosida tarbiyalanuvchining kuzatiladigan, o‘lchanadigan xarakterlari shaklida juda oydinlashtirish;
- ✓ tarbiyalanuvchining faolligiga tayanib tarbiyalash;
- ✓ bilish o‘zlashtirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlab, kuzatib borish;
- ✓ shakllantiruvchi va izohlovchi baholar;
- ✓ belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ✓ ta’lim-tarbiyaning kafolatlanganligi;
- ✓ ta’lim-tarbiya samaradorligining yuqoriligi;

Uning yana bir xususiyati shundaki, ilmiy asoslangan, yaxshi loyihalangan pedagogik texnologiya tarbiyachi mahoratidan qat’iy nazar ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydi, tarbiyalanuvchi ta’lim-tarbiyaning yakunida egallagan bilimlarni faol amalga oshiruvchisiga aylanadi.Shunday qilib, pedagogik texnologiya ilmiy konsepsiyaga asoslangan, maqsadni belgilash va unga erishishda ijtimoiy, didaktik, ruhiy-pedagogik, falsafiy nazariyaga suyangan, vazifa, faoliyat, natija yaxlitligi. Muvaffaqiyatini ta’minlaydigan, ta’lim-tarbiyaning loyihalangan jarayoni tamoyillari, prinsiplari, metodlari, vositalarining o‘zaro hamkorligidagi birligidir.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish, birinchi navbatda, ta‘limning paradigmasini o‘zgartiradi. Agar ta‘lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, hozir kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o‘qishga va o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta‘limning o‘qituvchi-darslik-o‘quvchi paradigmasi o‘quvchi-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashmoqda. O‘qituvchi endilikda yangi statusga ega bo‘ladi, endi uning vazifasi o‘quvchilarda mustaqil bilim olish imkoniyatlarini yaratish va ijodiy faoliyatlarini tashkil etish, bilimlarni mustaqil egallash va ularni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishdan iborat. O‘qituvchi bunday maqsadlarda o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, u o‘quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallash, o‘zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va avvalgi egallangan bilimlardan yangilarini olishda foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish – bu o‘quvchining yosh va shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o‘qitishdir. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda o‘qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

Zamonaviy jamiyatda ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda uchta asosiy vazifaga e‘tibor qaratiladi:

1. Ta‘lim tizimini isloh etish.
2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta‘lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e‘tirof etish.
3. Ta‘lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

Xullas, zamonaviy insonning o‘qish jarayoni faqat bog‘cha, umumta‘lim maktablari, akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlari, oliy ta‘lim muassasalari bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta‘lim olishi zarur, ya‘ni ta‘lim uzluksiz bo‘lishi kerak. Demak, uzluksiz ta‘lim – davr talabidir. Demak, bu muammo zamonaviy axborot texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyojni yanada shakllantirishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Azimjanova, T.Muradova, M.Pazilova. Informatika va axborot texnologiyalari. O‘quv qo’llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, –T: 2013y

2. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informatsion texnologiyalar. Darslik. – T.: TDYuI. 2004 y.

3.T.G’afforova. Boshlang`ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.Toshkent-2011

4. http://ru.wikipedia.org – erkin ensiklopediya «Vikipediya»

WORDLY KNOWLEDGE